

**JON APDAYK IJODIDA MIFOLOGIK
XUSUSIYATLAR TALQINI
Muhammedova Xulkar Eliboyevna
O'zDJTU dotsenti., (DSc)**

**THE MYTHOLOGICAL FEATURES IN JOHN UPDIKE
NOVELS**

*Muxamedova Xulkar Eliboyevna
Uzbekistan State world languages university associate professor, (DSc)*

**МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЖОН АПДАЙКА**

*Мухаммедова Хулкар Элибоеева
Узбекский государственный университет мировых языков
доцент (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada amerika adibi Jon Apayk ijodi misolida mifologik xususiyatlar keng tahlilga tortilgan. Muallif ijodida kuzatilgan asarlarda miflarning stilizatsiya qilinishida yangi neomif shakli yaratilganligi aniqlanadi. Neomiflarda yaratilgan obrazlarning arxitipikligi ularning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: mif, amerika, adabiyot, asar, obraz, syujet, stilizatsiya, motif

Annotation: The article analyses in detail the mythological traits in the works of the American writer John Updike. It is considered that it is revealed that a new-mythological form was created in the stylization of myths. The archetypical nature of characters, created in neo-mythology, is reflected in their unique characteristics.

Key words: myth, america, literature, novel, image, plot, stilization, motiv

Аннотация: В статье подробно анализируются мифологические черты в творчестве американского писателя Джона Апдайка. В рассмотренных в творчестве автора работах выявлено, что в стилизации мифов была создана новая немифическая форма. Архетипичность образов, созданных в неомифах, отражается в их уникальных характеристиках.

Ключевые слова: миф, Америка, литература, роман, образ, сюжет, стилизация, мотив.

Kirish. Jon Hoyer Apdayk amerika adabiyotining yorqin siymolaridan biridir. Garvard oliygohining sobiq talabasi bo'lgan yozuvchi umrining oxirigacha shu oliygohda faoliyat yuridi. Jon Hoyer Apdayk (1932-2009) ijodining asosini tashkil etuvchi mifologizmning asosiy xususiyati yangi mif shaklida kitobxonlar nigohida namoyon bo'lishidir. Adibning o'zi bergen intervyyularidan birida asarlarimdan birortasi yo'q-ki, unda mifga xos element aks etmagan bo'lsin ta'kidlagandi[5].

Darhaqiqat umri davomida yigirmadan ortiq asarlar yozgan yozuvchi mifning yangi shakli bo'lgan neomifologizmga oid romanlar yaratdi. Uning ijodi nafaqat amerika balki butun dunyo kitobxonlari e'tiborini o'ziga tortdi. Bir-biriga o'xshamagan syujetlarda mifning bir qancha yangi shakllarini uchratishimiz mumkindir. Uning "Kentavr", "Quyon

tetralogiyasi", "Istwik jodugarlari", "Braziliya", "Tristan va Izolda" kabi asarlarida yozuvchi mifning yangi shakli bo'lgan neomiflarni yarata olgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jon Apdayk ijodini o'rgangan tadqiqotchilar adib ijodi rang barang ekanligini e'tirof etishadi. Amerikalik tadqiqotchi D.Greynier adib asarlarini o'rganar ekan muallif amerika muhitini saqab qolganligiga e'tibor qaratdi.[1] Uning fikriga ko'ra muallif amerika muhitida yangiga asar ya'ni yangi mif shakllarini kuzatish imkonи mavjud. Bu adibning obrazlarida ham o'z aksini topgan. L.Mazzeno esa muallifning novatorligiga to'xtalib o'tadi. Jon Apdayk novatorligining asosiy xususiyati bu adibning mifologiyaga tayanib yangi shakl yarata olishidir [2]. Tadqiqotchi yozuvchining arxitipik obrazlarida mujassam bo'lgan sifatlarni saqlab qolishi va



hulkar_m@yahoo.com
Telefon raqami: 99
3966342
<https://orcid.org/0009-0003-5002-625X>

zamonaviy hayotda ularning hatto harakatlarida namoyon bo‘lishini neomif syujeti chizig‘ida tasvirlaganini yutuq sifatida baholaydi.

Nazarimizda tadqiqotchilarning Jon Apayk ijodida mavjud amerika kontekstiga xos bo‘lgan voqealar tizimida va yozuvchi novatorligini ijobiy baholashi uning mahoratlari ijodkor bo‘lganligidan alolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Amerika konteksti da ochib berilgan mifologik motivlarning stilizatsiya qilinishi natijasida amerika adibi Jon Apdayk ijodida neomiflar yaratilganligi kuzatildi. Mifologiyaning stilizatsiya qilinishida mif syujetining saqlab qolinishi va uning zamonaviy hayotda talqin etilishida mifning xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Jon Apdayk neomiflarida arxitipik obrazlar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Stilizatsiya qilingan miflarning g‘oyaviy badiiy xususiyatlari, ularning ifoda usullari, mifologik motivga asoslanib yangi asar yaratilishi zamonaviy postkolonial amerika adabiyotining asosiy o‘rganishga arzigulik jihatir. Badiiy tahlilga asoslanib asarning asosiy jihatlarini aniqlashda biz obrazlar tizimiga e’tibor qaratamiz. Asarda ifoda etigan obrazlar orqali bir-biriga bog‘langan ma’lum davrdagi voqealar o‘z aksini topadi. Bu voqealar Jon Apdayk ijodida mifning stilizatsiyasi natijasi bo‘lgan neomiflarda kuzatiladi.

Natijalar va muhokama. Jon Apdayk neomiflarga asoslangan romanlarida qator arxitipik obrazlarni asarning asosiy qahramonlari sifatida tasvirlaydi. Yozuvchi o‘z asarlarida “jodugarlar”, “masxarabozlar”, “sharpalar” ya’ni arvoхlar obrazi va shu bilan birga sayor ritsar va uning ajoyib xonimlaridan unumli foydalanadi. Jodugarlar obrazida yozuvchi mifologiyada keng talqin etiluvchi jodugarlarning ham ijobiy ham salbiy sehr-jodu qilish qudratini saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday qobiliyat sohibalarini biz “Istvik jodugarlari”da tasvirlangan Aleksandra, Syu va Jeyn, “Quyon haqida tetrologiya” da Jenis, Rut, Mim, Telma, Jill va Pru, “Ferma” da Pekki va Jonyaning onasi, “Kentavr”da Xessi, Penni v Vera Gammel, “Braziliya” da Ursula va Kupexaki, “Juftliklar”da Ruf va Salli, Foksi, Anjela, Janet, Marsiya, “Gertruda va Klavdiy”da Gertruda va Ofeliya kabi obrazlarda uchratamiz. Yozuvchi tasvirlagan jodugar ayollar obrazida miflarda aks etgan jodugarlarning ko‘rinishlarini ham saqlab qolishga urinadi. “Istvik jodugarlari”da to‘zg‘igan tartibsiz sochlari, qonsiz, oqargan yuzlari, kulrang

sochlari haqiqiy jodugar ko‘rinishini eslatib yuboradi. Muallifning o‘zi ham bunday ko‘rinishlarni “witchlike – jodugarga o‘xshash, banshee - qonsiz, witchy severity – jodugar jahldorligi” kabi sifatlar bilan ifoda etadi. Sharpalarda yani arvoхlar ko‘rinishlarida esa gohida mavjud bo‘lib yozuvchi ifoda etgan ma’lum vazifani ado etganidan so‘ng g‘oyib bo‘lishi holati Garri Engstrom, Jerri, Joya va Piter kabi arxitipik obrazlar orqali tasvirlanadi. Masxarabozlar esa Jorj Kolduel, Darilla Van Xorna, Skiter, Freddi Torna kabi obrazlarda namoyon bo‘ladi. Sayor ritsar va uning ajoyib xonimini biz yozuvchining “Braziliya” asarining bosh qahramonlari bo‘lgan Trishtan va Izoldalarda ko‘rishimiz mumkin. Qayd etilgan aexitiplarni biz ularni o‘rab turgan dunyo, ularning xususiyatlari va ularning asardagi vazifasiga ko‘ra tahvilga tortamiz.

Badiiy asarda sharpalar obrazi yoxud ularning mavjudligi XVIII asrda shakllangan gotik romanlarda aks etdi. Sharpalar yoxud arvoх, qolaversa ko‘lanka obrazi Jon Apdaykning “Kentavr”, “Quyon haqida tetrologiya”da kuzatiladi. “Kentavr” romanida tasvirlangan bolakay Piter xotiralarida va cherdakda yashovchi ulg‘aygan Piterning tasavvurlarida ko‘zga tashlanadi. Piterning o‘zi ham o‘z ruhining tanasidan chiqib tepaga ko‘tarilganligini hikoya qiladi: “Tibet lamalariga o‘xshab tanamdagи ruh tanani tark etib yuqoriga ko‘tarildi. Go‘yo o‘zimni ikki qiyofada biri mening jonsiz tanam, ikkinchisi mening ruhim bo‘lsada biz aslida bitta jonzotligimiz aniq”[7]. “Quyon haqida tetrologiya” da esa asar qahramoni Garri atrofidagilar uchun ba’zan sharpaning o‘zi edi: “he was a kind of ghost – u sharpa edi”, he is not really there, but is a ghost being there - o’sha yerda emasligi aniq, ammo, u sharpa kabi kezib yurardi”. “She had slowly ceased to see him, he had become invisible – Jenis o‘rtog‘i Garrining salkam sharpaga aylanib qolayozganligini juda kam qayqardi”[8]. Jon Apdayk sharpa so‘zini ba’zan ko‘rinmas, arvoх kabi so‘zlar bilan ifoda etadi. Uning bunday qahramonlari sharpa ko‘rinishida atrofidagi o‘rab turgan muhitni teran anglashga xizmat qiladi. O‘z tanasini tark etib atrof muhitdagi kechayotgan voqelikni bayon etish uning xususiyatlaridan biridir. Jon Apdaykning asarlarida sharpalar obraziga tadqiqotchi J.Nieri asarda mavjudlik va mavhumlikning ko‘rinishlarida sharpa yoxud uning ko‘lankasi hatti harkatlar,

qolaversa xotiralarda keng talqin etilgan degan fikrni ilgari suradi[4].

Muallif ijodida kuzatilgan jodugarlar obrazida ayol qiyofasining ikki tarafi namoyon bo‘ladi. Ayol obrazlariga qadimgi miflarda tasvirlangan jodugarlarning sehr qilish qudrati saqlab qolningan. Ular bu sehrni oldin o‘zlarida sinab ko‘rishadi. Sehrning salbiy xususiyatlari borligiga qaramay jodugar ayollar buni sinab ko‘rishadi. “Istvik jodugarlari”da Aleksandra turmush o‘rtog‘i vafotidan so‘ng fermada yaxshi hosil unmaydi. Uning hayotida omadsizliklar ro‘y bera boshlaydi. Aleksandra yana baxtni his qilish uchun sehrni ishga solishga harakat qiladi. U yana bir bor ona bo‘lishga qaror qiladi, fermada yaxshi hosil olishi uchun ham sehr yetishmaydi deb hisoblaydi. Unga befarq bo‘lganlarni ham sehr jodu qiladi. Qadimgi miflardagi kabi ayolning bunday qilishi oqibatida vaqtincha bo‘lsa-da orzulari amalga oshadi. Sehr va joduning ayolning kuchiga aylanib kuchli jins vakillarining tobelligi namoyon bo‘ladi. Aleksandra, Syu va Jeynning hatti harakatlarida aks etgan sehr qudrati zamonaviy hayotda feminizm ta’sirida vujudga kelgan. Ayol endilikda uy yumuslaridan ortib jamiyatda kasb borasidagi yutuqlarga erisha boshlashi buning yaqqol isbotidir.

“Braziliya” asarida keng talqin etilgan sayyor ritsar va uning ajoyib xonimining zamonaviy obrazi bu asarning bosh obrazlari bo‘lgan Tristan va Izoldadir. Qadimgi ingliz mifologiyasida aks etgan Tristan va Izoldaning hayotini zamonaviy hayotga ko‘chirgan muallif uning syujetini yangicha talqin qilishga erishgan. Qora tanli Tristan oq tanli go‘zal qiz Izolda bilan tenglasha olmaydi. Jamiyat qora va oq tanlilar o‘rtasida tafovut mavjudligini har qadamda eslatadi. Adabiyotshunos J.Prosser roman “milliy va irq miflariga asoslangan muhabbat haqidagi ertak”[6] ekanligini ta’kidlaydi. Asar qora tanli kambag‘al yigit Tristano (Tristano) va nufuzli siyosatchining sariq sochli go‘zal qiz Izabelning muhabbat tarixi haqida hikoya qiladi. Romanning hikoya qilish uslubi mifologik va realistik tarzda ifoda etilgan. Tristan va Izolda haqidagi afsonaga asoslangan asarda yozuvchi kelt mifi voqealarini hozirgi kun Braziliyaning ekzotik tabiatiga ko‘chiradi va zamonaviylashtiradi. O‘rta asr afsonasining zamonaviy tarzda hikoya qilinishi

muallifning o‘ziga xos uslubinining mavjudligini ko‘rsatdi. Asar quyidagi fikr bilan boshlanadi: “*BLACK is a shade of brown. So is white, if you look*”[9]. Shartli ravishdagi ikki rang ya’ni oq va qora ziddiyatni – romanning ijtimoiy-madaniy fonini ifodalaydi.

Ikki irq, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq, Braziliyaning yovvoyi tabiatini va sanoatlashgan manzarasi kabilar muallif e’tiboridagi ziddiyatni anglatadi. Shu tariqa, Jon Apdayk ijtimoiy va irqi y mansublikdan kelib chiqqan holda insonlar o‘rtasidagi tengsizlikni tasvirlaydi. Romanning chuqur mifologik qatlami Tristano va Izabel obrazlari, ularning boshdan kechirgan voqealarini hayotiy sinovlari bilan bog‘liq. Izabelning oilasi kabi jamiyat ham qora tanli yigit va oq tanli qiz o‘rtasidagi nikohni tan olmaganligi bois qahramonlar doimiy kurash fonida tasvirlanadi. Ularning muhabbat fojealidir, biroq sof va abadiydir. “Taqdir va ruhlarga” ishongan Tristano ilk uchrashuvdayoq Izabelga DAR yozuvli uzuk sovg‘a qiladi. Tristianoning bunday tuhfasi yori bilan umrbod birga baxtli hayot kechirish ma’nosini ifodalaydi. Romanda bir qator mifologik obrazlar kuzatiladi. Izabelning qonidan paydo bo‘lgan, “yonma yon turgan ko‘za va guldon – like a chalice, with a bowl”[9] shaklidagi dog‘ ikki xususiyatga egadir. Birinchisi mazkur dog‘ muqaddas Graal¹ obrazining paydo bo‘lishiga xizmat qilsa, ikkinchisi esa qurbanlik talab qiluvchi muhabbat motiviga bog‘liqligidan dalolat beradi. Izabela erkakga xos bo‘lgan ruh kuchini ko‘ra olgan shamanning paydo bo‘lishi romanda mazkur illyuziyani kuchaytirgan. Shaman qizdag‘i ruh kuchini Mayra deb ataydi, ya’ni shaman mifologiyasiga ko‘ra “u portugaliyaliklar uchun Iso hisoblanadi. – *Maira is their name for a prophet like the Jesus of the Portuguese*”[9]. Izabel Tristianoni qullikdan ozod qilish maqsadida to‘kis hayotidan, otasidan voz kechishga va o‘zgarishga qaror qiladi. Asarda ertakga xos bo‘lgan xazina izlash motivi ham muhim hisoblanadi.

Konda ishlayotgan Tristianoning xayolini oilasini va onasini o‘rnini bosgan oltin izlash fikri egallagan. Serra-do-Burakodagi hayot sevishganlar uchun sinovlarga boy bo‘ldi. Tristano og‘ir jismoniy mehnatdan charchaydi, Izabel esa oilasini boqish uchun ishlashga majbur bo‘ladi. Topilgan bir bo‘lak

¹Izoh: Muqaddas Graal - Qirol Artur davri adabiyotida muhim motiv sanalgan xazina. Turli xil marosimlarda mazkur xazina baxtni,

yoshlikni yoki to‘kis hayotni ato etuvchi kosa, ovqat yoki tosh sifatida tasvirlangan.

oltin ikkalasiga yaxshi hayotga bo‘lgan umidni uyg‘otadi, biroq folklor motivlariga binoan oltin ularga baxtsizlik olib keladi. Tristiano Izabelning otasidan yashirinish uchun sevgilisi bilan qochishga majbur bo‘ladi. Yo‘lida uchragan to‘sirlardan o‘tgan qahramonlarni bundanda og‘ir sinovlar kutadi. Ular yo‘qotishni, og‘ir jismoniy mehnat azoblariga bardosh bersalarda, o‘lim arafasida turganda ham bir birlariga bo‘lgan muhabbat kuchini his qiladilar.

Romandagi mifologik element Braziliyaning o‘ziga xos tabiatni va xalq e’tiqodlarini uyg‘un holda tasvirlashga asoslanadi. Shahar sanoat peyzaji yovvoyi tabiatning shafqatsiz manzarasiga o‘zgaradi. Taraqqiyotdan, ijtimoiy va irqiy nizolardan uzoqlashgan qahramonlar ibridoiy hayot tarziga qaytadilar, ammo shafqatsiz tabiat va yovvoyi hindular qarshisida ojiz qoladilar. Tupi qabilasidan bo‘lgan Kupexaki kampir qahramonlarga ustozlik qiladi va ularga notanish jamiyatda omon qolish yo‘llarini o‘rgatadi. Shaman Teyjukupapo obrazi asarga g‘ayritabiiy elementni olib kiradi. Undagi sehr-jodu qilish bilimi Tristianoni qullikdan ozod qilish qobiliyatiga ega. Mahalliy jinoyat guruhi tomonidan qullikda saqlanayotgan Tristianoni, jinoyatchilar Izabelning muhabbat ramzini ifodalagan uzugi evaziga ozod qilish mumkinligini aytadilar. Romandagi yana bir mifologik element ikki xil tafakkur orasidagi chegarani olib tashlash uchun o‘tkaziladigan trubka chekish marosimi hisoblanadi. Shaman bilan yolg‘iz qolgan Izabel notanish tilda so‘zlash va tushunish qobiliyatiga ega.

Nazarimizda, shamanning kuchi mutlaq emas, uni sehr-u jodusi tabiatga moslashish vositasini anglatadi: “*Sehr-jodu narsalarni o‘zgartirishi yoki aralashtirishi mumkin, ammo barchasi o‘yin qoidalari doirasida sodir bo‘ladi*” – “*Magic can merely transpose and substitute, as with the counters of a game*”[9]. Tristianoni qullikdan qutqarish uning qo‘lidan keladi, u sevishganlarning tana rangini o‘zgartirishi kerak xolos. Olti kun davomida Izabelning tanasiga jenipapo mevasidan tayyorlangan qora rangda sehrli naqshlar chiziladi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, tananing oq rangdan qora rangga o‘zgarishi bo‘yash natijasi deb hisoblash mumkin, shu vaqtning o‘zida parallel ravishda Tristianoning oq tanliga o‘zgarishi shamanning sehr-jodu qila olishining natijasiga yo‘yish mumkin.

Sayyor ritsar kabi ko‘p sarguzashtlarni, qiyinchiliklarni boshidan kechirgan Trishtan ham o‘z xonimi Izolda bilan qayta uchrashadi.

Mifning zamonaviy neomif shaklida talqin etilishi adabiyotga yangicha nafas olib kirdi. Tadqiqotchi Maktavish Jon Apdayk neomiflarida qadimgi mifning tub ildizi mavjudligi syujet chizig‘ida namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi[3]. Yuqorida tahlilga tortilgan asarlar shuni ko‘rsatadiki mifning stilizatsiya qilinishida neomif vujudga keladi. Yozuvchi Jon Apdaykning mahorati ham shunda namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Jon Apayk asarlari tahlilida kuzatilgan mifologik motivlarning stilazatsiyasida mifninf asl mohiyati yangi belgilari bilan neomiflarda namoyon bo‘ladi. Yozuvchi neomiflarga singdirib yuborgan obrazlar taqdiri miflardagi kabi sarguzashtlarga boydir. Arxitipik obrazlarning turli tiplarida sharpa, masxaraboz, jodugarlar va sayor ritsar va uning ajoyib xonimi aks etadi. Ularning o‘ziga xosligini ochib beruvchi xususiyatlarda mifda keng talqin etiluvchi sehr qilish qudrati mavjuddir. Yozuvchi saqlab qolishga harakat qilgan sehr qudrati ularning ajralib turuvchi belgisi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Greiner D. J. John Updike’s Novels. – Ohio: OhioUniversity Press, 1984. – 223 p.
2. Mazzeno L. W. Becoming John Updike: Critical Reception. 1958–2010. – New York: Camden House. Rochester, 2013. – 272 p.
3. McTavish J. Myth and Gospel in the Fiction of John Updike. – Oregon: Oregon University Press, 2016. – 310 p.
4. Neary J. Something and Nothingness: The Fiction of John Updike and John Fowles. Southern Illinois University Press, 1992. – 248 p.
5. Plath J. Conversations with John Updike. University Press of Mississippi. – 320 p.
6. Prosser J. Updike, Race, and the Postcolonial Project. Cambridge Companion to John Updike. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 250 p.
7. Updike J. Kentavr. – New York: Knopf, 1996. – 450 p.
8. Updike J. Rabbit. New York: Knopf, 1990.461 p.
9. Updike J. Brazil. – New York: Knopf, 1996. – 430 p.